

Umumta'lim maktabning 2024-2025 o'quv yili 8-sinf o'quvchilarining fizika fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol, masala va topshiriqlar varianti

I ChSB (fizika)

1. Elektron nima? (bilish – 2 ball)

- A) geliy atomining ioni
- B) vodorod atomining ioni
- C) $+1,6 \cdot 10^{-19}$ C zaryadga ega bo'lgan elementar zarracha
- D) $-1,6 \cdot 10^{-19}$ C zaryadga ega bo'lgan elementar zarracha


2. Neytral atom 3 ta elektronini yo'qotdi. U qanday ionga aylanadi? (qo'llash – 2,8 ball)

- A) musbat B) manfiy C) neytral D) aniqlab bo'lmaydi

3. Zaryadi $+4e$ bo'lgan tomchi unga yorug'lik tushishi natijasida 2 ta elektronini yo'qotadi. Tomchining keyingi zaryadi qanday bo'ladi? (qo'llash – 2,8 ball)

- A) $+2e$ B) $+6e$ C) $+8e$ D) $-8e$

4. Uchta zaryadlangan shar elektr maydonlarining grafik tasviri rasmda berilgan. Kuch chiziqlarining yo'nalishini hisobga olgan holda, A shar zaryadining ishorasini aniqlang. (bilish – 2 ball)



- A) musbat B) manfiy C) neytral D) aniqlab bo'lmaydi

5. Zanjirdagi tok kuchi ... (bilish – 2 ball)

- A) o'tkazgichdan o'tgan zaryad miqdoriga teng
- B) kuchlanishga to'g'ri, qarshilikka teskari proporsional
- C) kuchlanish bilan qarshilik ko'paytmasiga teng
- D) qarshilikka to'g'ri, kuchlanishga teskari proporsional


6. O'zaro ta'sirlashuvchi 2 ta zaryadli zarrachalar orasidagi masofani o'zgartirmay birinchisini 2 marta, ikkinchisini 3 marta orttirsak, ularning o'zaro ta'sir kuchi qanday o'zgaradi? (qo'llash – 2,8 ball)

- A) 2 marta ortadi B) 5 marta ortadi
- C) 6 marta ortadi D) 6 marta kamayadi

7. Agar tok kuchi 0,3 A ga teng bo'lsa, 5 minut davomida o'tkazgichdan qancha zaryad o'tadi (C)? (qo'llash – 2,8 ball)


- A) 60 B) 150 C) 120 D) 90

8. Quyida qarshiligi $12\ \Omega$ bo'lgan o'tkazgichning uchlariga qo'yilgan kuchlanishning vaqtga bog'liqligi ko'rsatilgan. O'tkazgichdan o'tgan tok kuchini (A) aniqlang. **(qo'llash – 2,8 ball)**



- A) 0 B) 0,5 C) 2 D) 1

9. Rasmda to'rtta har xil o'tkazgichlardagi tok kuchining kuchlanishga bog'lanish grafiklari berilgan. Qaysi o'tkazgich eng katta qarshilikka ega? **(qo'llash – 2,8 ball)**



- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

10. Quyida keltirilgan mis simlarning qaysi biri eng katta qarshilikka ega? **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 
- B) 
- C) 
- D) 


11. EYK lari $2,2\text{ V}$ va ichki qarshiliklari $4\ \Omega$ bo'lgan ikki doimiy tok manbai bir xil qutblari bilan ulangan. Bu manbalar batareyasini qanday teng kuchli bir manba bilan almashtirish mumkin? **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) $\varepsilon = 2,2\text{ V}; r = 2,4\ \Omega$ B) $\varepsilon = 4,4\text{ V}; r = 2\ \Omega$
 C) $\varepsilon = 4,4\text{ V}; r = 4\ \Omega$ D) $\varepsilon = 2,2\text{ V}; r = 2\ \Omega$

12. $+7q$ va $+3q$ zaryadli ikkita bir xil metall sharlar K kalit orqali o'tkazgich sim bilan tutashtirildi. t vaqtdan so'ng sharlar orasida zaryadlar muvozanati yuzaga keldi. Shu vaqt ichida o'tkazgich orqali oqib o'tgan tokning kattaligini aniqlang. **(mulohaza – 4 ball)**



- A) q/t B) $2q/t$ C) $4q/t$ D) $10q/t$

13. R qarshilikdan o'tayotgan tok kuchini o'lchashda ampermetr noto'g'ri ulangan sxemani belgilang. (bilish – 2 ball)



- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

14. Quyidagi elektr zanjirga mos elektr sxemani aniqlang. (qo'llash – 2,8 ball)



15. O'tkazgichdagi tok kuchi 0,2 A. Uning ko'ndalang kesim yuzidan 16 s da nechta elektron o'tadi? (qo'llash – 2,8 ball)

- A) 10^{19} B) $2 \cdot 10^{19}$ C) $3 \cdot 10^{19}$ D) $1,5 \cdot 10^{18}$

